

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.07.2022.I.16.05 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

SHAKIROV UTKIRBEK TAXIROVICH

**SUG'URTA KOMPANIYALARI BIZNES-JARAYONLARINI
RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISHNI
TADQIQ ETISH**

08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy)

DISSERTATSIYASI

**Ilmiy rahbar: I.f.d., dotsent
A.B. Bobojonov**

Toshkent shahri – 2026 yil

MUNDARIJA

	KIRISH.....	3
I-bob.	O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING SUG‘URTA BOZORINI ISLOH QILISH VA UNING JADAL RIVOJLANTIRISHDA SUG‘URTA KOMPANIYALARINING TUTGAN O‘RNI.....	13
1.1.	Sug‘urta bozorini rivojlanib borish tendensiyalari.....	13
1.2.	Sug‘urta kompaniyalari boshqaruv va biznes-jarayonlarining tasnifi.....	30
1.3.	Sug‘urta faoliyatida axborot jarayonlarini raqamlashtirishdagi muammolar.....	45
II-bob.	SUG‘URTA KOMPANIYALARI FAOLIYATIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISHNING USLUBIY ASOSLARI.....	59
2.1.	Sug‘urta kompaniyasi biznes–jarayonlarini raqamlashtirishning zamonaviy tendensiyalari.....	59
2.2.	Sug‘urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligi uchun qayta sug‘urtaning rolini oshirishda axborot ta’minotini optimal shakllantirish.....	72
2.3.	Sug‘urtada raqamli texnologiyalar asosida ma’lumotlarni qayta ishlash va taqdim etishni takomillashtirish.....	90
III-bob	SUG‘URTA KOMPANIYALARI BIZNES-JARAYONLARINI RAQAMLI TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH.....	108
3.1.	Milliy sug‘urta bozorida biznes-jarayonlarini raqamli texnologiyalar asosida takomillashtirish.....	108
3.2.	Sug‘urtada masofaviy nazorat qilish va tezkor onlayn-monitoringini olib borish bo‘yicha integratsiyalashtirilgan axborot tizimini shakllantirish.....	121
3.3.	Yangi innovatsion sug‘urta mahsulotlarini joriy etishda biznes-jarayonlarini boshqarishni raqamlashtirish.....	137
	XULOSA VA TAKLIFLAR.....	150
	FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI	154
	ILOVALAR.....	167

KIRISH

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon iqtisodiyotida sugʻurta kompaniyalari biznes-jarayonlarini raqamli texnologiyalar asosida takomillashtirish moliyaviy vositachilik samaradorligini oshirish, risklarni aniqroq baholash, operatsion xarajatlarni qisqartirish va mijozlar bilan oʻzaro aloqani sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish orqali sugʻurta bozorining barqaror oʻsishini taʼminlovchi muhim omil sifatida namoyon boʻlmoqda. Bunda raqamli sugʻurta texnologiyalari yechimlari, sunʼiy intellekt va mashinali oʻqish asosidagi anderayting, Big Data va IoT (telematik sugʻurta, “aqlli” qurilmalar va h.k.)dan foydalangan holda tariflar differensiatsiyasi, daʼvolarni koʻrib chiqish jarayonlarini avtomatlashtirish va frod xavfini pasaytirish orqali sugʻurta portfellarining risk-profilini optimallashtiriladi. “Bugungi kunga kelib raqamli iqtisodiyotning global yalpi ichki mahsulotdagi ulushi taxminan 15-20 foizni tashkil etadi va oʻsishda davom etmoqda. Yetakchi davlatlar AQSh, Xitoy, Janubiy Koreya, Yevropa Ittifoqi yuqori koʻrsatkichlarni koʻrsatmoqda – 30% gacha va undan yuqori”¹. Shu bois, jahon iqtisodiyoti sharoitida sugʻurta kompaniyalari biznes-jarayonlarini raqamli texnologiyalar asosida takomillashtirishning iqtisodiy mexanizmlari, moliyaviy natijalarga va bozor raqobatbardoshligiga taʼsirini ilmiy jihatdan chuqur tadqiq etish muhim hisoblanadi.

Jahon miqyosida sugʻurta kompaniyalari biznes-jarayonlarini raqamli texnologiyalar asosida takomillashtirishni tadqiq etishga qaratilgan ilmiy izlanishlar raqamli sugʻurta texnologiyalari yechimlari orqali sugʻurta bozorining samaradorligi, shaffofligi va barqarorligini oshirishga xizmat qiluvchi alohida yondashuv sifatida shakllanib bormoqda. Mazkur tadqiqotlarda, asosan, sunʼiy intellekt va mashinali oʻqish asosida anderayting va daʼvolarni koʻrib chiqish jarayonlarini avtomatlashtirish, Big Data va IoT yordamida tariflash va risklarni miqdoriy baholashni takomillashtirish, blokcheyn va smart-shartnomalar orqali

¹<https://datastream.by/blog/sovety-pokupatelyam/tsifrovizatsiya-biznesa-kakie-tehnologii-nuzhny-kompanii-v-2025-godu/>.
<https://brizo.ru/biznes-blog/glavnye-trendy-2025>.

sug'urta bitimlarini raqamlashtirish, mijozlar tajribasini yaxshilaydigan omnikanal raqamli platformalarni joriy etish hamda sug'urta kompaniyalari moliyaviy barqarorligiga raqamli transformatsiyaning ta'sirini ekonometrik modellar asosida baholash ustuvor yo'nalishlar sifatida o'rganilmoqda.

O'zbekiston sug'urta bozorining rivojlanishi ko'p jihatdan raqamli iqtisodiyotning yangi texnologiyalarini joriy etilishiga bog'liqdir. Jumladan, Raqamli O'zbekiston – 2030 Strategiyasi doirasida BMTning elektron hukumati indeksi bo'yicha dunyoning yetakchi 30 ta davlati qatoriga kirish maqsadi belgilangan². Shu bilan birgalikda, Hukumatning qo'llab-quvvatlashi va texnologiyalarning faol joriy etilishi natijasida sug'urta xizmatlari aholi uchun yanada qulay, samarali va shaffof bo'lmoqda. Sug'urta kompaniyalari xavflarni baholash va da'volarni hal qilish uchun sun'iy intellektdan foydalanishni boshladilar. Sug'urta polislari ro'yxatga olinadigan yagona avtomatlashtirilgan axborot tizimi (Central Insurance Base - CIB.uz) ishlab chiqilmoqda. Bu tizim sug'urta faoliyatini nazorat qilish va hisobga olishning shaffofligini ta'minlashga xizmat qiladi. Sug'urta kompaniyalari mijozlarga polislarni onlayn sotib olish, shartnomalarni boshqarish, maslahatlar olish va hatto da'volarni elektron tarzda topshirish imkonini beruvchi veb-saytlar va mobil ilovalarni faol rivojlantirmoqda. Sug'urta xavflarini yanada aniqroq baholash, narxlarni belgilash (anderrayting), firibgarlik holatlarini aniqlash va jarayonlarni avtomatlashtirish borasida hududlardagi sug'urta kompaniyalari xizmatlarini rivojlantirish, zarur bo'lgan raqamli sug'urta platformalaridan foydalanish hamda ularni takomillashtirishni hisobga olgan holda ilmiy tadqiqot ko'lamini kengaytirish maqsadga muvofiqdir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025 yil 30 yanvardagi PF-16-son "O'zbekiston - 2030" Strategiyasini "Atrof-muhitni asrash va "Yashil" iqtisodiyot yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida", 2024 yil 21 fevraldagi PF-37-son "O'zbekiston-2030" Strategiyasini "Yoshlarni qo'llab-quvvatlash yili

²O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 5 oktabrdagi "Raqamli O'zbekiston — 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6079-son Farmoni // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 06.10.2020 y., 06/20/6079/1349-son. <https://lex.uz/docs/5030957>.

Davlat dasturi to'g'risida", 2023 yil 11 sentabrdagi PF-158-son "O'zbekiston-2030" strategiyasi to'g'risida, 2020 yil 5 oktabrdagi PF-6079-son "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmonlari, 2024 yil 1 martdagi PQ-108-son "Sug'urta xizmatlari bozorini yanada rivojlantirishning kompleks chora-tadbirlari to'g'risida", 2021 yil 21 oktabrdagi PQ-5265-son "Sug'urta bozorini raqamlashtirish va hayot sug'urtasi sohasini rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida", 2020 yil 28 apreldagi PQ-4699-son "Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida", 2018 yil 3 iyuldagi PQ-3832-son "O'zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari va ushbu sohadagi boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. «Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy hamda madaniy-ma'rifiy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish» ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Iqtisodchi olimlar va axborot-texnologiyalari mutaxassislar sug'urta tashkilotlarida axborot jarayonlarini avtomatlashtirish, raqamli iqtisodiyot va uning tarmoq hamda sohalarida AKT tizimlarini qo'llash muammolari, ulardan foydalanish jarayonlarini ekonometrik modellash va statistik tahlil qilish bo'yicha ko'plab ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan. Iqtisodiyotning turli tarmoqlariga raqamli iqtisodiyot texnologiyalarini joriy etishning ilmiy-amaliy masalalari xorijlik iqtisodchi olimlarning ilmiy ishlarida keng tadqiq etilgan. Jumladan, Maykl Naylor[58], Sabine L.B[60]. VanderLinden va Nicole Anderson[60], Anthony A. Tarr, Maurice Thompson[54], Don Tapskott[76], A. Байпан[24], M.A. Егорова [24], K.Loudon, J.Loudon[57], Toshio Obi[62], Besanko D.Dranove[55] va boshqalar ushbu mavzuga alohida e'tibor qaratganlar.

MDH mamlakatlari olimlaridan A.M. Блюмина[67], A.A. Быкова[70], M.H. Горюнов[40], A.A. Рыболовлев[40], Д.А. Рыболовлев[40], P.Ю. Царев[90], Н.С. Косиненко[78], E.B.Парфенова[82], Д.В. Евтянова[35], M.B. Тиранова [35], Н.Г. Викторова[33]larning ilmiy ishlarida turli sohalarda raqamli iqtisodiyotning nazariy va amaliy masalalari tadqiq qilingan.

Shuningdek, mahalliy olimlardan akademik S.S.G‘ulomov[74,56], professorlar, R.H. Alimov[20], B.Yu.Xodiev[20], B.A. Begalov[56], O.M. Abdullaev, A.T. Kenjabaev[94], T.S. Qo‘chqarov, I.Ye. Jukovskaya[31], Sh.O‘. Djanadilov[23], A.B. Abdusalomov[14] va boshqalar tomonidan ilmiy izlanishlar olib borilgan. Mazkur tadqiqotlarda axborotlashtirish jarayonlariga alohida e‘tibor qaratilgan. Jumladan, akademik S.S. G‘ulomov o‘zining ilmiy ishlarida axborot oqimlarini optimal tashkil etish, avtomatlashtirilgan axborot tizimlarini ishlab chiqish va ulardan samarali foydalanish, raqamli iqtisodiyotni shakllantirish jarayonlari haqida fikr yuritganlar. Professor R.H.Alimov o‘z ilmiy izlanishlarida xalq xo‘jaligining turli soha va tarmoqlarida axborot tizimlarini joriy etish, ularning infratuzilmalarini optimal loyihalash, texnik va dasturiy-texnologik vositalardan samarali foydalanishning iqtisodiy-matematik modellarini taklif qilgan. Professor B.A.Begalovning ilmiy izlanishlarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining (AKT) milliy iqtisodiyot rivojiga ta’sirining uslubiy asoslari AKTning iqtisodiyotdagi o‘sish, raqobatbardoshlik va tarkibiy o‘zgarishlarga qanday ta’sir qilishini tahlil qiluvchi keng ko‘lamli nazariy va amaliy yondashuvlar bilan bog‘liqligi o‘rganilgan. AKT ning iqtisodiyotga ta’sirini texnologik, ijtimoiy, iqtisodiy va tashkiliy jihatdan turli nuqtai nazardan ko‘rish mumkin deb ta’kidlaydilar. Sug‘urta sohasini rivojlantirishning umumiy jihatlariga X.M. Shennaev[61], D.A. Baratova[21], I.Abduraxmanov[17], G.Xoliqulova, M.Abduraxmanova[18] va boshqalarning ishlarida yoritilgan. Ammo ushbu tadqiqotlarda sug‘urta biznes-jarayonlarida raqamli platformalaridan foydalanishni takomillashtirish bo‘yicha ilmiy tadqiqot amalga oshirilmagan. Shulardan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, bugungi kunda mamlakatimiz sug‘urta sohasida raqamli platformalaridan foydalanishni takomillashtirish muammosini ilmiy tadqiq

etish hamda uning uslubiy asoslarini yaratish dolzarb ahamiyatga ega bo'lib, bunday tadqiqot mamlakat iqtisodiyotida sug'urta sohasi rivojlantirishni ta'minlovchi strategiyalarning samarali ishlab chiqilishi va amalga oshirilishi uchun muhim ilmiy-uslubiy asos bo'lib xizmat qiladi.

Tadqiqot mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq FM-9. "Milliy iqtisodiyotning turli sohalariga innovatsion axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini samarali tatbiq yetishning nazariyasi va amaliyoti" mavzusidagi ilmiy loyiha (2021-2025-y.y.) doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi sug'urta kompaniyalari biznes-jarayonlarini raqamli texnologiyalar asosida takomillashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

sug'urta kompaniyalari biznes-jarayonlarida raqamli platformalardan foydalanishni takomillashtirishni nazariy asoslarini tadqiq etish;

sug'urtada raqamli texnologiyalardan foydalanishning hozirgi holati va o'ziga xos xususiyatlarini asoslash;

sug'urta kompaniyasining biznes-jarayonlarini tasniflash;

sug'urta kompaniyalarida raqamli platformalaridan foydalanishning xorijiy tajribalari va ulardan foydalanish yo'llarini tadqiq etish;

sug'urta kompaniyalari biznes-jarayonlarini rivojlantirishda raqamli platformalardan foydalanishdagi muammolarni aniqlash;

biznes-jarayonlarini raqamlashtirilgan platformasini ishlab chiqish;

sug'urta xizmatlari tizimini o'zgartirish jarayonida raqamli sug'urta texnologiyalari rivojlanishini baholashga uslubiy yondashuv ishlab chiqish;

qayta sug'urtalashda intellektual axborot ta'minotini yaratish bo'yicha takliflar ishlab chiqish;

sug'urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligini ta'minlash maqsadida raqamli platformalardan foydalanish strategiyalari ishlab chiqib, ular asosida innovatsion sug'urta mahsulotlarini joriy etish;

sug'urtada raqamli texnologiyalarini faol rivojlantirish va keng joriy etishga qaratilgan strategik dastur ishlab chiqish;

sug'urta sohasida masofaviy interaktiv xizmatlarni qo'llashning amaliy jihatlari ishlab chiqish;

Tadqiqotning obyekti sifatida sug'urta kompaniyalari biznes-jarayonlari bilan bog'liq faoliyati tanlangan.

Tadqiqotning predmetini sug'urta kompaniyalari biznes-jarayonlarini raqamli texnologiyalar asosida takomillashtirishni tadqiq etish jarayonida vujudga keladigan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida tizimli yondashuv, statistik kuzatish, taqqoslash, statistik guruhlash, monografik kuzatuv, iqtisodiy indekslar va korrelyatsion-regression tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

sug'urta kompaniyasi front-ofisida andarrayting va mijozlar arizalarini qayta ishlash jarayonida haqiqiy vaqtda biznes faolligi va o'zgarishlarni boshqarish orqali sug'urta kompaniyalari biznes-jarayonlarini optimal raqamlashtirilgan platformasini ishlab chiqish asosida qarorlar sifatini yaxshilash hamda operatsion risklar va xarajatlarni kamaytirish taklifi ishlab chiqilgan;

sug'urta xizmatlarining raqamli transformatsiya indeksini aniqlashning muallif uslubiy yondashuvi asosida yirik sug'urta kompaniyalarining raqamlashtirish darajasi va boshqaruv samaradorligi natijalari da'volarni onlayn ko'rib chiqish ulushi ($D = 0,8$), elektron polislar ulushi ($EP=0,7$), mijoz uchun mobil ilovalar mavjudligi ($MI = 1,0$), raqamli xizmatlar orqali yig'ilgan mukofot ulushi ($M = 0,6$) ko'rsatkichlari orqali aniqlangan;

sug'urta kompaniyasidagi xizmat ko'rsatish xususiyatlarini inobatga oluvchi sug'urta zaxiralarini hisoblash modulini yaratish orqali 2025-2030 yillarga

mo'ljallangan axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini faol rivojlantirish va keng joriy etishga qaratilgan strategik dastur ishlab chiqilgan;

“Kafil-sug‘urta” AJ korporativ yagona axborot tizimiga andarrayting bloki hamda sug‘urta moduli va sug‘urta mahsulotlarini sotuvchi hamkor sayyohlik kompaniyalarida o‘rnatilgan “ARM-agentlik” dasturiy paketlarini birlashtirish orqali sug‘urta kompaniyasida turoperator uchun fuqarolik javobgarligi shartnomasini tuzish tartibi takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

xavflarni baholash, istisnolarni hal qilish va qaror qabul qilish uchun yagona interfeysni taqdim etish orqali andarrayter vazifalarini soddalashtirish tizimli yondashuv konsepsiyasi asosida qayta sug‘urtalashda intellektual axborot ta’minoti tizimini yaratishni taklif etilgan;

raqamli strategiyaning samaradorligini baholash mezonlari ishlab chiqilgan;

sug‘urta bozorida raqamli xavfsizlik mexanizmlarini joriy etish, blokcheyn texnologiyalari asosida ma’lumotlarning shaffofligi va xavfsizligini ta’minlash yo‘nalishidagi kriptografiya va raqamli imzolar, avtomatlashtirilgan smart-kontraktlar, kiberxavfsizlik protokollari kabi yangi usullar taklif etildi;

sug‘urta sohasida masofadan boshqarish va operativ onlayn monitoring kompleks axborot tizimini shakllantirish yo‘nalishlari belgilab berildi;

sug‘urta kompaniyasining amaldagi biznes modeliga integratsiyalashuvining tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini shakllantirish algoritmi ishlab chiqilgan;

“Kafil-sug‘urta” AJda xizmatlar sifatini nazorat qilish funksiyasi bilan turistlarni sug‘urtalash biznes - jarayoni modeli yaratildi;

andarrayting blokini “Kafil-sug‘urta” AJning korporativ tizimining yagona axborot sxemasiga, shu jumladan sug‘urta moduli va sug‘urta mahsulotlarini sotuvchi hamkorlar – sayyohlik kompaniyalarida o‘rnatilgan “ARM-agentlik” dasturiy paketlarini birlashtirish orqali AJda turoperator uchun fuqarolik javobgarligi shartnomasini tuzish tartibi taklif etilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Dissertatsiya tadqiqotda qo‘llanilgan yondashuv va usullarning maqsadga muvofiqligi, ma’lumotlarning rasmiy

manbalardan, jumladan O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi, O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va Moliya vazirligi, O‘zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi hamda O‘zbekiston Respublikasi Markaziy Bankining statistik ma’lumotlaridan olingani hamda tegishli xulosa va takliflarning mutasaddi tashkilotlar tomonidan amaliyotga joriy qilingani bilan belgilanadi. Xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy yetilganligi, olingan natijalarning vakolatli idoralar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati dissertatsiyada asoslangan nazariy, uslubiy va amaliy tavsiyalar hamda ishlanmalar Respublikamizda faoliyat yuritayongan sug‘urta kompaniyalari tomonidan foydalanish, sug‘urtada biznes-jarayonlari tizimini joriy qilish borasida axborot tizimlari va avtomatlashtirilgan ish joylarini yaratishda, raqamli texnologiyalarni keng joriy etishda hamda amaliy loyihalarni ishlab chiqishda manba sifatida foydalanish mumkinligi bilan belgilandi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ulardan «Raqamli O‘zbekiston – 2030» milliy konsepsiyasini qabul qilishda, Prezident qarorlari, farmonlari, Vazirlar Mahkamasi qarorlari va sohaga oid boshqa huquqiy-me’yoriy hujjatlarni tayyorlashda, shuningdek, sohani samarali rivojlantirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar majmuini ishlab chiqishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Sug‘urta kompaniyalari biznes-jarayonlarini raqamli texnologiyalar asosida takomillashtirishni tadqiq etish bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

sug‘urta kompaniyasi front-ofisida andarrayting va mijozlar arizalarini qayta ishlash jarayonida haqiqiy vaqtda biznes faolligi va o‘zgarishlarni boshqarish orqali sug‘urta kompaniyalari biznes-jarayonlarini optimal raqamlashtirilgan platformasini ishlab chiqish asosida qarorlar sifatini yaxshilash hamda operatsion risklar va xarajatlarni kamaytirish taklifi “Kafil-sug‘urta” AJ va “My-insurance” AJ faoliyatiga joriy etilgan (“Kafil-sug‘urta” AJning 2025-yil 10-sentyabrdagi 10/09-sonli ma’lumotnomasi) hamda (“My-insurance” AJning 2025-yil 25-oktyabrdagi 25/10-1-sonli ma’lumotnomasi). Mazkur taklifning amaliyotga joriy etilishi

natijasida biznes-jarayonlarni real vaqt rejimida operativ boshqarish orqali anderrayting va mijozlar arizalarini ko'rib chiqish samaradorligi oshib, qarorlar sifatini yaxshilab, operatsion risklar va xarajatlarni kamaytirish, jarayonlarning shaffofligi va nazoratini oshirishga imkon bergan;

sug'urta xizmatlarining raqamli transformatsiya indeksini aniqlashning muallif uslubiy yondashuvi asosida yirik sug'urta kompaniyalarining raqamlashtirish darajasi va boshqaruv samaradorligi natijalari da'volarni onlayn ko'rib chiqish ulushi ($D = 0,8$), elektron polislar ulushi ($EP=0,7$), mijoz uchun mobil ilovalar mavjudligi ($MI = 1,0$), raqamli xizmatlar orqali yig'ilgan mukofot ulushi ($M = 0,6$) ko'rsatkichlari orqali aniqlash bo'yicha taklif "Kafil-sug'urta" AJ va "My-insurance" AJ faoliyatiga joriy etilgan ("Kafil-sug'urta" AJning 2025-yil 10-sentyabrdagi 10/09-sonli ma'lumotnomasi) hamda ("My-insurance" AJning 2025-yil 25-oktyabrdagi 25/10-1-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida sug'urta sohasida samarali boshqaruvni ta'minlash, qaror qabul qilish jarayonlarini takomillashtirish va raqamli innovatsiyalardan to'liq foydalanish imkoni yaratilgan;

sug'urta kompaniyasidagi xizmat ko'rsatish xususiyatlarini inobatga oluvchi sug'urta zaxiralarini hisoblash modulini yaratish orqali 2025-2030 yillarga mo'ljallangan axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini faol rivojlantirish va keng joriy etishga qaratilgan strategik dastur ishlab chiqish taklifi "Kafil-sug'urta" AJ faoliyatiga joriy etilgan ("Kafil-sug'urta" AJning 2025 yil 10-sentabrdagi 10/09-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida sug'urta zaxiralarini hisoblash moduli yaratilib, sug'urta zaxiralarini shakllantirishning to'g'riligini oshirgan, shu orqali sug'urta kompaniyasining moliyaviy barqarorligini ta'minlash va sug'urtalovchilar oldidagi majburiyatlarini bajarishga xizmat qilgan;

"Kafil-sug'urta" AJ korporativ yagona axborot tizimiga anderrayting bloki hamda sug'urta moduli va sug'urta mahsulotlarini sotuvchi hamkor sayyohlik kompaniyalarida o'rnatilgan "ARM-agentlik" dasturiy paketlarini birlashtirish orqali sug'urta kompaniyasida turoperator uchun fuqarolik javobgarligi

shartnomasini tuzish tartibini takomillashtirish taklifi “Kafil-sug‘urta” AJ faoliyatiga joriy etilgan (“Kafil-sug‘urta” AJning 2025 yil 10-sentabrdagi 10/09-sonli ma’lumotnomasi). Mazkur taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida sug‘urta kompaniyasida turoperator uchun fuqarolik javobgarligi shartnomasini tuzish jarayonlari aniqligi, shaffofligi, tezkorligini oshirish imkoni yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalar, 3 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo’yicha jami 14 ilmiy ish, shu jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop yetish bo’yicha tavsiya etgan ilmiy nashrlarda 8 ta maqola, jumladan, 6 tasi mahalliy va 2 tasi xorijiy jurnallarda, shuningdek ilmiy-amaliy anjumanlarda 6 ta ma’ruza tezlari nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya ishi tarkibi kirish, 3 ta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 153 betni tashkil etadi.